O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko’chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy_t@exat.uz, www.Oltinsoy.uz

2022 - yil 1 - aprel 92-8-108-Q/22 Oltinsoy tuman hokimligi

# Tuman hokimining 2021-yil 22-sentabrdagi “2022- yil Oltinsoy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 150-8-108-Q/21-sonli qarorga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 -yil 5 - dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 10-bandi ijrosini ta’minlash hamda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining 2022-yil 10-martdagi 22-0901-03/213-sonli xatini inobatga olib

## QAROR QILAMAN:

1. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining 2022-yil 10-martdagi 22-0901-03/213-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining 2021-yil 22-sentabrdagi “2022- yil Oltinsoy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 150-8-108-Q/21-sonli qarorining 1-bandining 1-xat boshi va 5-xat boshi quyidagicha;

tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar sonidan kelib chiqib, Oltinsoy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun 234 ta ish o‘rinlari band qilinganligi, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,0 foiz (11 kishi) deb o‘qilsin.

3. Tuman hokimining mazkur qarorining ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (Sh.Xudoyberdiev) besh kun muddatda ushbu qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga etkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

5. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Babakulov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **A.T.Djumayev**

Oltinsoy tuman hokimining
2022 yil 1 apreldagi
92-8-108-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Oltinsoy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

## ТАКЛИФ

| № | Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi) | INN | Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarining umumiy soni | Oldingi yillar hisobga olingan holda taklif kiritilgan sanadan zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlari soni | Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni | shu jumladan: | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Nogironlarga | Boshqa toifadagilar |
| 1 | 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 203237796 | 118 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 2 | 39-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 203242127 | 97 | 3 | 3 | 1 | 2 |
| 3 | Oltinsoy tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi | 207091448 | 72 | 1 | 3 | 1 | 2 |
| 4 | Tibbiyot birlashmasi | 201951489 | 1540 | 18 | 19 | 2 | 17 |
| | **Jami:** | | **1827** | **24** | **29** | **5** | **24** |